

MAKTABGACHA TA'LIMDA SAN'AT, MUSIQA VA IJODIY FAOLIYAT ORQALI BOLALARNI ESTETIK TARBIYALASH

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Pedagogika fakulteti

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Usmonova Farangiz

tel: +998 91 722 67 05

Annotatsiya: *Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim jarayonida san'at, musiqa va ijodiy faoliyatning bolalar estetik tarbiyasini shakllantirishdagi o'rni tahlil qilinadi. San'atning turli ko'rinishlari orqali bolalarning his-tuyg'ulari, tasavvuri, badiiy didi va ijodkorlik qobiliyatlari rivojlanishi ilmiy-nazariy asoslarda yoritiladi. Musiqa va tasviriy ijod bolalarning nafosatni anglash, o'zini ifoda etish, atrof muhitni estetik idrok qilish kabi ko'nikmalarni kuchaytirishi ta'kidlanadi. Estetik tarbiya faqat dars jarayonida emas, balki bolaga yaratilgan umumiy madaniy-muhit, pedagogning badiiy didi va ta'lim tashkilotidagi ijodiy atmosfera orqali ham samarali shakllanadi. Ijodiy mashg'ulotlarda erkinlik mustaqil g'oya ilgari surish, hayoliy tasvir yaratish imkoniyatini berish bolalarning nafaqat estetik balki psixologik va ijtimoiy rivojiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.*

Kalit so'z: *San'at, musiqa, ijodiy faoliyat, estetik tarbiya, tasavvur, ijodkorlik qobiliyati, pedagog va bola, ta'lim va tarbiya.*

Аннотация: *В данной статье анализируется роль искусства, музыки и творческой деятельности в формировании эстетического воспитания детей в процессе дошкольного образования. На научно-теоретической основе освещается развитие у детей эмоций, воображения, художественного вкуса и творческих способностей через различные виды искусства. Подчеркивается, что музыка и изобразительное искусство укрепляют у детей такие навыки, как понимание изящного, самовыражение*

и эстетическое восприятие окружающего мира. Эстетическое воспитание эффективно формируется не только на уроке, но и через созданную для ребенка общекультурную среду, художественный вкус педагога и творческую атмосферу в образовательной организации. Свобода в творческой деятельности, возможность самостоятельно выдвигать идеи, создавать образные образы, положительно влияет не только на эстетическое, но и на психологическое и социальное развитие детей.

Ключевые слова: *Искусство, музыка, творческая деятельность, эстетическое воспитание, воображение, творческие способности, педагог и ребенок, образование и воспитание.*

Abstract: *This article analyzes the role of art, music and creative activities in the formation of children's aesthetic education in the process of preschool education. The development of children's emotions, imagination, artistic taste and creative abilities through various forms of art is highlighted on a scientific and theoretical basis. It is emphasized that music and visual arts strengthen children's skills such as understanding elegance, self-expression, and aesthetic perception of the environment. Aesthetic education is effectively formed not only during the lesson, but also through the general cultural environment created for the child, the artistic taste of the teacher and the creative atmosphere in the educational organization. Freedom in creative activities, the opportunity to independently put forward ideas, create imaginative images, has a positive effect not only on the aesthetic, but also on the psychological and social development of children.*

Keywords: *Art, music, creative activity, aesthetic education, imagination, creative ability, teacher and child, education and upbringing.*

Kirish

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimida bolalar tarbiyasining barcha yonalishlari ichida estetik tarbiya alohida ahamiyat kasb etmoqda. Chunki estetik tarbiya bolalarning nafosatning his qilishi, go'zalikni anglash qobiliyati, badiiy didi

va ijodiy tafakkurini shakllantirishda asosiy omillardan biridir. San'at, musiqa va turli ijodiy mashg'ulotlar esa ana shu jarayoning eng tabiiy, ta'sirchan va samarali vositalari hisoblanadi. Maktabgacha yosh davri – bolaning tasavvuri eng faol ishlaydigan, his tuyg'ulari tez shakllanadigan, yangi ta'surotlarini jon-dildan qabul qiladigan bosqichidir. Shu sababli bu davrda sa'nat va musiqa orqali berilgan tarbiyaviy ta'sir bolalarning keyingi shaxsiy va ma'naviy rivojiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Ijodiy faoliyatning erkinlikka asoslangan shakllari bolaga o'z fikrini mustaqil ifoda etish tasviri vositalar orqali his tuyg'ularini yetkazish, musiqiy ritm va ohanglarni sezish kabi ko'nikmalarni shakllantiradi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida estetik tarbiyaning samarali bo'lishi, avvalo, ta'lim muhitining o'zi ijodiy, ochiq va badiiy ruhda bo'lishiga bog'liq. Pedagogning o'z badiiy didi, bolalar bilan ishlashdagi nozik yondashuvi ham estetik tarbiyaga katta ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun san'at va musiqa bilan bog'liq mashg'ulotlar faqat o'quv dasturining bir bo'lagi sifatida emas, balki bolalar hayotining kundalik jarayoniga singdirilishi lozim. Shu asosda ushbu maqolada san'at, musiqa va ijodiy faoliyatning estetik tarbiyadagi o'рни, ularning bolalar rivojiga ta'siri hamda maktabgacha ta'limda bu jarayonni yanada takomillashtirish bo'yicha metodik tavsiyalar ko'rib chiqiladi.

Asosiy qism: Maktabgacha ta'lim jarayonida estetik tarbiya bolalarning badiiy didini, tasavvurini, his-tuyg'ularini va ijodiy fikrlashini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Estetik tarbiyaning markazida san'at, musiqa va turli ijodiy faoliyat turlari turadi, chunki aynan shu vositalar orqali bola atrofidagi go'zallikni ko'ra boshlaydi, uni his qiladi va o'z tasavvurlari orqali qayta yaratishga intiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun rang, shakl, ritm, ohang kabi badiiy vositalar dunyoni idrok etishda natural ko'prik vazifasini bajaradi. Shu sababli san'at mashg'ulotlari bolaning nafaqat tasviri ko'nikmalarini, balki ruhiy-emotsional rivojini ham qo'llab-quvvatlaydi. Tasviri san'at bilan shug'ullanish jarayonida bolalar ranglar uyg'unligini anglaydi, shakllarni ajratish va ularni badiiy tarzda tasvirlashga o'rganadi. Rasm chizish, bo'yash, plastilin bilan yasash yoki kollajlar

tayyorlash jarayonida bola o'z ichki dunyosini ifoda etishga intiladi. Mening fikrimcha, bu jarayonlarda eng muhim jihat — bolaga tayyor qolipga moslashtirilgan rasm emas, balki erkin ijod qilish uchun sharoit yaratishdir. Chunki erkin ijod qilgan bola o'z qarashi, tasavvuri va his-tuyg'usini tabiiy ravishda ifoda eta oladi. Bu esa estetik tarbiyaning eng asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. Musiqa esa maktabgacha yoshdagi bolalar estetik kamolotiga yanada nozik va ta'sirchan vosita sifatida xizmat qiladi. Musiqa tinglash, qo'shiq kuylash, ritmik harakatlar bajarish yoki sodda cholg'u asboblarida chalish bolalarning nafosatni his qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Musiqa bolaning emotsional holatiga bevosita ta'sir qilgani sababli u quvonchini, hayajonini, hatto tasalli topishini ham musiqa orqali ifodalay oladi. Shuningdek, musiqaga mos harakatlar bolaning ritmni anglash, eshituv sezgirlikni kuchaytiradi. Menimcha, musiqiy tarbiyada eng muhim jihatlardan biri — bolani tinglovchi emas, faol ishtirokchi sifatida jarayonga qo'shishdir. Shundagina bola musiqani nafaqat eshitadi, balki his qiladi va shu orqali estetik didi shakllanadi.

Xulosa

Yuqorida keltirilgan fikr va mulohazalar shuni ko'rsatadiki, maktabgacha ta'limda san'at, musiqa va ijodiy faoliyat bolalarning estetik tarbiyasini shakllantirishda beqiyos ahamiyatga ega. Bu vositalar orqali bola dunyoni faqat ko'rmaydi, balki his qiladi, unga baho berishni o'rganadi va o'z tasavvuri orqali qayta yaratadi. Mening fikrimcha, estetik tarbiya samarali bo'lishi uchun bolaga erkin ijod qilish, his-tuyg'ularini cheklovsiz ifoda etish va atrofdagi go'zallikni mustaqil anglash imkoniyatini berish eng muhim omillardandir. San'at mashg'ulotlari bolaning tasavvurini ochadi, musiqa esa uning emotsional dunyosini boyitadi, ijodiy faoliyat esa shaxsiy tashabbuskorlik va o'ziga ishonchni kuchaytiradi. Shuning uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlarida estetik tarbiya alohida darslar bilan chegaralanib qolmasdan, butun ta'lim-tarbiya jarayonining ajralmas qismiga aylanishi zarur. Pedagogning badiiy didi, ijodiy yondashuvi va bolalarga yaratilgan estetik muhit bu jarayonning asosiy tayanchlaridan

biridir. Xulosa qilib aytganda, san'at va musiqa vositasida estetik tarbiya nafaqat bolalarning badiiy qobiliyatlarini rivojlantiradi, balki ularning shaxsiy kamoli, emotsional barqarorligi va hayotga ijodkorona yondashuvini ham shakllantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Vygotskiy L.S. Pedagogik psixologiya. – Moskva: Pedagogika, 1992.
2. Ushinskiy K.D. Chelovek kak predmet vospitaniya. – Moskva: Akademiya, 2002.
3. Kodirova F.R., Xoliqova N.X. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2018.
4. Yo‘ldosheva Sh., Abdurahmonova O. Maktabgacha ta’lim metodikasi. – Toshkent: “Noshir”, 2020
5. G‘oziyev E.G‘. Bolalar psixologiyasi. – Toshkent: “Universitet”, 2017
6. Xasanova S., Mamatova M. Maktabgacha ta’limda san’at va musiqa tarbiyasi. – Toshkent: “Fan”, 2021.
7. Davletshin M.G‘. Psixologiya asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti, 2005.